



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



IQLIM O’ZGARISHI VA UNING INSONIYATGA TA’SIRI

Hayitboyeva Sarvina Musliddinovna

*SamDCHTI ingliz tili fakulteti Xorijiy til va adabiyot yo’nalishi
2 –bosqich 2334 –guruh talabasi
hayitboyevasabrina@gmail.com
+998978960358*

Annotatsiya. *Iqlim o’zgarishi global muammo sifatida butun dunyo bo’ylab ekologik , iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga ta’sir ko’rsatmoqda . Atmosferaga chiqarilayotgan issiqnxona gazlari miqdorining ortishi yer yuzasining haroratini ko’tarib , suv sathining oshishiga, kuchli iqlim hodisalari, qurg’oqchilik va sel kabi tabiiy ofatlarining ko’payishiga olib kelmoqda . Bu jarayon o’z navbatida inson salomatligi , oziq- ovqat xavfsizligi va turmush sharoitlariga jiddiy ta’sir o’tkazmoqda. Iqlim o’zgarishiga qarshi chora – tadbirlarni ko’rish, jumladan , qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish , atrof- muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanishni ta’minlash insoniyat uchun hayotiy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so’zlari: *Iqlim o’zgarishi , issiqxona gazlari, ekologik muammo, qayta tiklanuvchi energiya , global harorat , tabiiy ofatlar, inson salomatligi.*

Kirish. Iqlim o’zgarishi so’nggi o’n yilliklarda dunyo miqyosida eng katta muammolardan birga ayalanadi. Atmosfera haroratining ko’tarilishi , tabiiy ofatlarning soni va kuchayishi , ekologik muhitning buzilishi nafaqat atrof-muhit balki insoniyat hayotining barcha sohalarga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda. Iqlim o’zgarishining sabablarini , uning insoniyatga qanday ta’sir qilayotganini va bu muammoning mumkin bo’lgan yechimlarning o’rganish muhim ahamiyatga ega.

1. Iqlim o’zgarishining asosiy sabablari.

Iqlim o’zgarishiga olib kelayotgan asosiy omillar quyidagilardan iborat;

- **Issiqxona gazlari emissiyasi;** Zavod va fabrikalardan chiqarilayotgan karbonat angidrid CO₂ va metan CH₄ kabi gazlar Yer atmosferasida issiqlikni ushlab qolib, haroratni oshirmoqda .

- **O’rmonlarning kesilishi ;** O’rmonlar karbonat angidridni o’zlashtirib , atmosferani tozalaydi. Lekin o’rmonlarning kesilishi bu tabiiy jaarayoni to’xtatib , iqlimga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda.

- **Qayta tiklanmaydigan energiya manbalari ;** Neft , ko’mir va gaz kabi manbalardan foydalanish asosiy sabablardan biridir.

- **Qishloq xo’jaligi va transport;** Chorvachilik va transport vositalardan chiqadigan zararli gazlar ham issiqxona effekti kuchayishiga sabab bo’lmoqda .

2.Iqlim o’zgarishining insoniyatga ta’siri .





- **Tabbiy ofatlar** ; Muzliklarning erishi tufayli dengiz sathining ko’tarilishi , kuchli tufonlar , qirg’oqchilik va suv toshqinlari ko’paymoqda. Bu holatlar butun dunyo bo’ylab minglab odamlarning hayotni xavf ostiga qo’ymoqda .
- **Salomatlik muammolari** ; Iqlim o’zgarishi natijasida yangi kasalliklar paydo bo’lmoqda, ayniqsa, bezgak va issiqlik to’lqinlar bilan bog’liq kasalliklar. Bundan tashqari oziq-ovqat tanqisligi va ichimlik suvining yetishmasligi odamlarning salomatligiga jiddiy zarar yetkazmoda.
- **Iqtisodiy inqiroz** ; Qishloq xo’jaligi hosildorligining pasayishi va suv resurslari tanqisligi tufayli iqtisodiyat zarar ko’rmoqda. Shuningdek, tabiiy ofatlar infratuzilmalarning vayron bo’lishiga olib keladi .
- **Qayta tiklanuvchi energiya o’tish** ; Quyosh , shamol va gidroengergetika kabi toza energiya manbalaridan foydalanish issiqxonalar gazlari chiqarilishi kamaytirishi mumkin
- **Global hamkorlik**; Xalqaro tashkilotlar va davlat iqlim o’zgarishini kamaytirish uchun birgalikda harakat qilishi lozim. Masalan , Parij kelishuvi doirasida ko’rilayotgan chorlar.
- **O’rmonlarni tiklash**; O’rmonlarni tiklash va saqlash , daraxt ekish kampaniyalarni amalga oshirish iqlim o’zgarishining oldini olishga yordam beradi
- **Individual hissa** ; Har bir inson ekologik madaniyatni oshirishi, chiqindilarni qayta ishslash va energiyani tejash orqali tabiatga o’z hissasini qo’shish orqali tabiatga o’z hissasini qo’shishi mumkin.

Xulosa. Iqlim o’zgarishi zamонавија dunyoning eng katta muammolardan biri bo’lib , u barcha mamlakatlar va insonlar hayotiga ta’sir ko’rsatmoqda. Bu masalaga qarshi kurashish uchun ham jamiyati birgalikda harakat qilishi , shuningdek, har bir inson tabiatini asrashga o’z hissasini qo’shishi kerak . Agar bugundan boshlab choralar ko’rilmasa , kelajak avlod jiddiy ekologik muammolarga duch kelishi mumkin. Shu sababli, iqlim o’zgarishiga qarshi kurashish faqat ekologik muammo emas, balki insoniyatning umumiyyatini maqsadiga aylanishi kerak .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **The Uninhabitable Earth ; Life After Warming by David Wallace – Wells-** Bu kitob iqlim o’zgarishining potentsial oqibatlari haqida so’z yuritadi va uning insoniyat uchun ta’siri qanday bo’lishi mumligini yoritadi.

2. **This Changes Everything ; Capitalism vs . The Climate by Naomi Klein -** Naomi Klein bu asarida iqlim o’zgarishini iqtisodiy tizim va siyosiyat bilan bog’laydi va global isishning insoniyat uchun ta’sirlarni ko’rib chiqdi .

3. **The Sixth Extinction ; An Unnatural History by Elizabeth Kolbert -** Kolbert bu kitobda biologik xilma- xillikning yo’qlishi va iqlim o’zgarishining tabiiy dunyoga ta’siri haqida so’zlaydi.

